

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida, Buxoro viloyatida jami 10 590,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	10 590,3	108,3
Buxoro sh.	2 027,5	125,1
Kogon sh.	355,0	100,5
Olot tumani	348,2	109,8
Buxoro tumani	443,7	110,5
Vobkent tumani	252,8	106,2
G'ijduvon tumani	590,6	111,7
Kogon tumani	578,5	98,6
Qorako'l tumani	306,1	59,8
Qorovulbozor tumani	340,0	101,3
Peshku tumani	460,0	105,7
Romitan tumani	767,0	116,9
Jondor tumani	350,0	110,5
Shofirkon tumani	538,0	106,9


Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyul oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 23,9 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,4 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	333,4	550,5	256,1
o'sish sur'ati, %	65,1	135,3	118,1
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 379,2	1 978,2	522,8
o'sish sur'ati, %	109,4	112,9	115,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 570,1	-	-
o'sish sur'ati, %	107,1	-	-

Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-iyul oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 140,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,8 % ga kamayib, 10,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,1 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil etgan holda 4 880,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 43,1 % ni yoki 4 570,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	1 140,0	4 880,2	4 570,1	100,4	111,5	107,1
Buxoro sh.	398,7	1363,1	265,7	145,8	125,4	102,1
Kogon sh.	22,4	299,1	33,5	49,4	108,1	107,1
Olot tumani	16,5	156,4	175,3	25,6	179,5	105,9
Buxoro tumani	11,9	248,2	183,6	78,5	115,8	106,7
Vobkent tumani	10,6	146,1	96,1	2,4 m.	102,1	106,2
G'ijduvon tumani	47,6	207,0	336,0	5,0 m.	101,4	106,6
Kogon tumani	32,9	382,7	162,9	98,7	94,3	110,7
Qorako'l tumani	40,4	123,1	142,6	14,8	112,9	109,5
Qorovulbozor tumani	235,0	85,8	19,2	129,5	63,1	105,4
Peshku tumani	9,5	278,6	171,9	180,1	98,8	116,1
Romitan tumani	119,7	450,1	197,2	110,9	126,0	103,3
Jondor tumani	17,5	200,3	132,2	5,4 m.	102,7	111,6
Shofirkon tumani	29,2	397,5	111,3	4,6 m.	101,2	107,2

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Jondor tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 5,4 m.), G'ijduvon tumani (5,0 m.) va Shofirkon tumanida (4,6 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 179,5 %), Romitan tumanida (126,0 %) va Buxoro shahrida (125,4%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyamatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlaminini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaring statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil: